

EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

*Ashurov Behruz Sharof o‘g‘li,
Qarshiboyev Oybek Ortiq o‘g‘li
SamATI talabalari*

Annotatsiya. *Mamlakatimizda boshqa sohalarda qatori ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu maqolada ekologik muammolardan biri bo'lgan tabiat ifloslanishi, daraxt barglarining yoqilishini va daraxtlarning kesilishini bartaraf etishga qaratilgan masalalar berilgan.*

Aholi sonining yildan yilga oshib borishi sanoat va transportning rivojlanishi, fan texnikaning taraqqiy etishi, insonning biosferaga ko'rsatayotgan ta'sir doirasi kengayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida u yoki bu ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda barcha sohalarda muammolarni bartaraf etishda innovatsion usullardan foydalanishni talab etmoqda. Masalan, qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligini oshirishda almashlab ekishda dukkakli don ekinlarini ekish, suv tanqisligida sug'orishning yangi usullarini kiritish va boshqa sohalarda ham xuddi shunday muammolarni bartaraf etishda innovatsion usullardan foydalanishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasini Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi Farmonining 79-maqsad: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish belgilangan. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, xalqaro maydonda atrof muhitga oid tashabbuslar va boshqa vazifalar va ushbu Farmonning 80-maqsad: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish maqsadi belgilangan va ushbu maqsaddan kelib chiqib, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish, Maishiy chiqindilarni yig'ishni 100 foizga, ularni qayta ishlash darajasini 2026-yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish va boshqa vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab quvvatlash yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi PF-37-sonli Farmonning 72-73-maqsadlarini amalga oshirish uchun qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib

chiqish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini 92 foizga, chiqindilarni qayta ishlash darajasini 40 foizga oshirish, havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 1,5 foizga qisqartirish, sanitariya-muhofaza va turar joy zonalarida atmosfera havosining sifat ko'rsatkichlari ustidan davlat nazoratini kuchaytirish va atmosferaga chiqarib tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytirish vazifalari belgilab berilgan.

Daraxtlarning tabiat va inson hayotida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Xususan, "yashil" olam shahar havosini 2-8 darajaga salqinroq saqlaydi. Bitta daraxt yiliga 15 ming litrgacha suvni tuproqda saqlaydi.

Daraxtlar har doim tabiatga, insoniyatga foyda keltirgan. Soyasi jonga mevasi tanga darmon. Lekin har bir faslning o'z xususiyati bor. Kuz fasli kelishi bilan daraxtlar o'zining yashil olamini xazonrezgilikka bo'shatib beradi. Ayni kuz faslida aholi tomonidan daraxtlardan to'kilayotgan barglarni yig'ish tashish ishlari tashvishga soladi. Shuningdek, uni yoqib yuborish holatlari ham kuzatiladi.

Keling, shu o'rinda yongan xazonning nechog'lik zararli ekanini statistik ma'lumotlar orqali tahlil qilib ko'raylik. Bir tonna xazon yoqilganda, atmosferaga 30 kg uglerod oksidi ajralib chiqadi. Bundan tashqari, inson salomatligi va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi boshqa moddalar, ya'ni oltingugurt angidridi, qurum, azot oksidi va murakkab tarkibli organik birikmalar – dioksinlar ham tashlanadi. Xazonan chiqayotgan tutun atmosfera tarkibidagi kislorod miqdorini kamaytiradi. Ayniqsa, chala yongan xazon o'zidan zaharli gaz chiqaradi.

Mutaxassislar fikricha, zararli moddalarga to'yingan havodan nafas olgan kishining nafas yo'llari, ko'zi hamda markaziy asab tizimi shikastlanadi. Shu bilan birga, organizmda o'pka saratoni, bronxial astma kabi xavfli kasalliklar kelib chiqishi xavfi ortadi. Xazonni yoqishdan kelib chiqadigan zararli tutun, ayniqsa, bolalar, yurak qon tomir nafas olish yo'llari xastaliklariga chalingan hamda allergiyasi bor insonlarga ko'proq salbiy ta'sir etadi.

Bugungi kunda insonlar tomonidan kuzda daraxtlardan tukilgan barglarni chiqindi sifatida ariqlarga, ko'cha yoqalariga chiqarib tashlamoqda yoki bo'lmasa ularni to'plab yoqib yubormoqda bu esa o'z navbatida atrof muhit ifloslanishiga va atmosfera havosining buzilishiga olib kelib, havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindilarning me'yoridan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammoni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birgalikda, insonlar tomonidan issiqlik manbaiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida ko'cha, yo'l va dalalardagi turli xildagi daraxtlarni hattoki o'z xovlisidagi mevali daraxtlarni kesib ulardan issiqlik manbai sifatida foydalanilmoqda. Bu esa o'z navbatida daraxtlarning keskin kamayishiga olib kelib, havoning ifloslanish darajasi oshib ketishiga, minglab turdagi

qush, hayvon va hasharotlar uchun boshpanasizligiga, tabiatdagi muvozanatning buzilishiga va suv tanqisligiga olib keladi. Daraxtlar suv tanqisligining oldini oladi. Ya'ni, daraxt bor joyda suvning parlanishi kamayib, yashillik saqlanib qoladi.

Bu borada ilmiy innovatsion g'oyalardan foydalangan holda, kuz oyida turli daraxtlardan tukilgan barglaridan samarali foydalangan holda innovatsion mahsulot ya'ni turli xildagi briketlar ishlab chiqish va aholiga yetkazib berish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan loyihaning maqsadi shundan iboratki hozirgi kunda butun dunyo uchun global muammo bo'lib kelayotgan atrof muhit va atmosfera ifloslanishini shuningdek daraxtlarning nobud bo'lishini aynan tabiiy va bepul bo'lgan tabiat resursi ya'ni daraxtlardan to'kilgan barglarni qayta ishlab va ulardan innovatsion bo'lgan mahsulot ya'ni daraxt xazonidan briketlar ishlab chiqishdan iborat. Bu briketlar 2 xil turda tayyorlanadi ya'ni birinchi turda turli xildagi daraxt (yong'oq, chinor, terak va boshqa)lar barglarini qayta ishlab undan briketlar ishlab chiqiladi va bu briketlardan issiqlik manbai sifatida foydalaniladi, ikkinchi turida esa turli xildagi mevali daraxt (o'rik, olma, gilos, tut va boshqa)lar barglarini qayta ishlab briketlar ishlab chiqiladi va bu briketlardan esa chorva mollariga ozuqa yem sifatida foydalaniladi.

Ushbu loyiha mamlakatimizda ilk bor amalga oshirilmoqda ya'ni birinchi marotaba tukilgan daraxt barglaridan ikki xildagi ya'ni issiqlik manbai va ozuqa sifatida briketlar ishlab chiqish texnologiyasi yo'lga quyilayotganligi va turli daraxtlardan to'kilgan barglari qiyosiy baholanib va ularning ijobiy ta'siri aniqlanib, ulardan samarali foydalanish va aholiga qo'shimcha arzon va sifatli issiqlik manbai va chorva mollari uchun qulay ozuqa yem bo'lib xizmat qilishi ushbu loyihaning innovatsionligini ko'rsatib beradi.

Ushbu loyihadan kutilayotgan natijalar quyidagilardan iborat:

- Atrof-muhit ifloslanishi oldi olinadi va ekologiyaning yaxshilanishiga olib keladi;
- Daraxtlar kamayishi ya'ni kesilishi oldi olinadi va bu esa havoni tozalanishi va tabiatdagi muvozanati yaxshilanadi;
- Innovatsion mahsulot ishlab chiqiladi va aholiga qo'shimcha arzon va sifatli issiqlik manbai bo'lib xizmat qiladi;
- Chorva mollari uchun arzon va to'yimli qo'shimcha ozuqa yemlari ishlab chiqiladi;
- Yangi ishchi kuchi yaratiladi va yoshlarning ish bandligi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Эсанбоев, К. У., & Бобокулов, З. Р. (2021). ТРЕБОВАНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПОДГОТОВКЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ

ПРОФЕССИИ ДЛЯ МОЛОДЕЖИ. *Universum: психология и образование.*– 2021, 3, 8-10.

2. Raimkulovich, B. Z., & Uktamovich, E. K. (2021). The Place of New Pedagogical Technologies in Increasing the Quality and Efficiency of Education. *JournalNX*, 400-404.
3. Abbosovna, X. R. (2024). EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 3(1), 192-196.
4. Xoldarov, Xatamjon Mo'Ydinovich (2023). O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (2), 603-606.
5. Fayzullaev, F. S., & Yalgashiev, A. F. (2022). MAKKAJ'XORI 707 DURAGAYINI SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA ETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 346-349.
6. Fayzimurodov, J., & Eshonkulov, B. (2023). TEXNIK KANNABIS NAVLARINING O'SISHI VA RIVOJLANISHI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 446-451.
7. Sanaev, S. T., Qahhorov, S. Q., & Sayfidinov, X. Z. (2024). THE ROLE OF BROCCOLE CABBAGE IN FOOD SECURITY. *TADQIQOTLAR*, 31(1), 160-162.
8. K'ushokovich, K. S., Spifidinov, X. Z., & Samaridinovich, K. N. (2024). GILIOS (CERASUS AVIUM L.) MEVALI EKININI ETISHTIRISHNING AMALIY JI'XATLARI. *TADQIQOTLAR*, 31(1), 154-159.
9. Amanturdiyev, I., & Kholmuminov, S. (2023). EFFECT OF FERTILIZER RATE ON ROOT SYSTEM DEVELOPMENT OF SWEET PEPPER VARIETIES AND HYBRIDS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(19), 25-29.
10. Ostonaikulov, T. E., Xonkulov, X. X., & Amonturdiyev, I. X. (2014). УРОЖАЙНОСТЬ И АДАПТИВНОСТЬ СОРТОВ КАРТОФЕЛЯ ПРИ РАННЕЙ И ДВУУРОЖАЙНОЙ КУЛЬТУРЕ. *The Way of Science*, 31.
11. Tursunov, S., Bobomirzayev, P., Sanayev, S., Rizaev, S., & Bobokulov, Z. (2023). The influence of planting times on the formation of the root system of wheat varieties in the conditions of the Zarafshan valley. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 462, p. 02043). EDP Sciences.